

ISSN 2181-5291

PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC JOURNAL

№ 4, 2019

www.psixologiyabuxdu.uz





Satvaldiev Azizbek Ahmadjonovich,
Andijon mashinasozlik instituti «Ijtimoiy fanlar» kafedrası
katta o'qituvchisi



TADBIRKORLIK PSIXOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarda bozor munosabatlari, iqtisodiy hayot qadriyatları, muvaffaqiyatlari, ularga erishish yo'llari va usullari haqida so'z boradi.

Калит сўзлар: Kichik va o'rta biznes, oilaviy biznes, genofon, moslashuv, tafakkur, kasbiy faoliyat.

Аннотация: Эта статья расскажет вам о рыночных отношениях, экономических жизненных ценностях, успехах, путях и средствах их достижения.

Ключевые слова: Малый и средний бизнес, семейный бизнес, генофонд, адаптация, видение, профессиональная деятельность.

Abstract: This article discusses market relations, economic life values, successes, ways and means of achieving them in young people.

Key words: Small and medium-sized businesses, family business, gene pool, adaptation, vision, professional activity.

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqil O'zbekistonda bozor munosabatlarning barqarorlashuvi, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, odamlarda mehnatga, moddiy ne'matlarga munosabatlarning o'zgarishini taqozo etadi. Kichik va o'rta biznes, oilaviy biznes, fermerlik harakati, qo'shma korxonalarda tadbirkorlikning samarali usullarini joriy etish, ushbu faoliyatga imkon beruvchi shaxs sifatlarini tarbiyalash, odamlar tafakkurida yangicha qarashlarni shakllantirish psixologiyaning muhim masalalaridan hisoblangan tadbirkorlik muammosini izchil ilmiy asosda o'rganishni taqozo etadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohani takomillashtirish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotini erkinlashtirish borasidagi faol harakatning boshlanganligi, mustaqil O'zbekiston fuqarolari shaxsida ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurni to'g'ri shakllantirish, ularni halol tadbirkor ruhida tarbiyalash, iqtisodiy tafakkurni ilk yoshlikdanoq, shakllantirishga e'tiborni qaratishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, faol moslashuvning asosiy mohiyati insonning o'z atrofidagi shart-sharoit, ijtimoiy muhit talablarini qabul qilishi va o'zlashtirishida namoyon bo'ladi. Mazkur ta'rif o'zgarishlar jarayonida tahlil etilganda shaxsning o'zi bajarishi lozim bo'lgan faoliyat bilan tanishishi, yangi muhit talabiga mos ravishda o'z xulqini o'zgartirib borishini nazarda tutadi.

Ma'lumki, tevarak-atrofimizni qamrab olgan olamdagi iqtisodiy obyektlar, jarayonlar, munosabatlarning rivojlanishi va o'zgarib borishi iqtisodiyot va psixologiya fanlari o'rtasidagi bog'lanishni tobora oydinlashib borishiga xizmat qilmoqda. Bunday bog'lanishlarni, ularning ilmiy tadqiqotlari ko'lamining kengayib borayotganligidan ham kuzatish mumkin.

Bir tomondan, o'zgarishlar jarayonida (masalan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida) iqtisodiy va psixologik fanlarning nafaqat yaqinlashuvi, balki qo'shilishi, bir-birining mohiyatiga kirib borishi jadallashmoqda.

Ikkinchi tomondan – individual, guruhli va jamoaviy psixologiyaning xo'jalik jarayonlariga, iqtisodiy amaliyotga moslashishi hamda sohadagi boshqaruv qarorlarining qabul qilinishiga ta'siri keskin ravishda kuchayib bormoqda.

Global inqiroz sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va munosabatlarning shakllanish darajasiga e'tibor berib qarasaq, psixologiya borgan sari ko'proq iqtisodiyotga kirib borayotganligi, to'ldirayotganligi hamda uning katta-kichik ko'lamdagi voqeliklarining tub negiziga aylanib borayotganligi sezilmoqda. Afsuski, bu holat mahalliy sharoitda iqtisodchilarning ham, psixologlarning ham ilmiy tadqiqotlari predmeti sifatida izlanishlar ko'lamini kam miqyosda qamrab



olmoqda. Insonning iste'molchi va iqtisodiy foyda izlovchilar sifatidagi xulqida kuzatiladigan psixologik xususiyatlar A.Smit, A.Marshallardan boshlab, to J.Keynsgacha bo'lgan «iqtisodiy nazariya»ning klassik namoyandalari asarlarida aks etgan bo'lsa-da, iqtisodiyot fani hozirgacha psixologiya bilan yonma-yon turib, uning ichiga kirishmagan. Psixologiya fani esa o'zining ong va psixika xususidagi ilmiy asoslangan qarashlarini saqlagan holda, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish, iste'mol qilishda jinsiy identifikatsiya masalalariga, shuningdek, tadbirkor shaxsining jamiyatdagi o'zgarishlarga faol moslashuvi va ularda ikkilamchi kasbiy faollikni shakllantirishning psixologik xususiyatlarini o'rganishga hamda ilmiy jihatdan tadqiq qilishga endigina kirishgan.

Psixologik adabiyotlarda keltirilishicha, shaxs – ijtimoiy voqelikdir. Uning ijtimoiyligi kundalik xulq-atvorida, o'ziga o'xshash insonlar bilan bo'ladigan muloqotlarida, o'zidan-o'zi va o'zgalardan ijtimoiy ta'sir olishida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda tadbirkorlar mehnat faoliyatining ijtimoiy mohiyatini tushunish, bozor iqtisodiyotining ta'sirida ulardagi ijtimoiy xususiyatlarning shakllanishi va o'zgarishi mexanizmlarini bilish hamda ularni zamonaviy usullarda tadqiq etish ijtimoiy psixologiya sohasining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda mehnat faoliyati psixologiyasining asosiy vazifalariga quyidagi muammolarni o'rganish yuzasidan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish kiradi:

- muayyan kasbiy faoliyat turlarining psixologik xususiyatlari (uning vositalari, mazmuni, tashkil etish va shart-sharoitlar, xatolar tahlili, kasblar klassifikatsiyasi va boshqalar);
- shaxs individual - psixologik xususiyatlarini mehnat samarasi, muvaffaqiyati va xavfsizligiga ta'siri;
- shaxs kasbiy layoqati shakllanishining psixologik qonuniyatlari (kasbga yo'naltirish, kasbiy tanlov, kasbiy tayyorgarlik, mehnatga moslashuv);
- mehnat egasining funksional holati (toliqish, emotsional zo'riqish, stress, monotoniya va boshqalar) va ularni diagnostika, profilaktika, korreksiya qilish usullari;
- inson va texnika munosabatlarining psixologik qonuniyatlari;
- yangi texnikani yaratish va qo'llash jarayonining injener-psixologik ta'minoti (loyihalash, baholash, dasturlash).

Internet ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya davlat xizmati akademiyasi (RAGS) tomonidan o'tkazilgan qator tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, shaxs u yoki bu darajadagi yangi sharoit bilan to'qnash kelar ekan, yangi vaziyatga moslashish va unumli faoliyatni ta'minlash psixologiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Yuqorida alohida ta'kidlab o'tilganidek, zamonaviy psixologiya fanida bunday jarayon moslashish, deb ataladi hamda bu ibora yangi sharoitga xos bo'lgan shartlarni yangi mehnat egasi tomonidan o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Faol va muvaffaqiyatli moslashuvning asosiy mezoni sifatida quyidagilar: a) yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyat(i)dan daromad (umumqabul qilingan obyektiv mezonlar); b) mehnat subyektivi tomonidan yaratilgan ish joylari soni (qo'shimcha obyektiv mezonlari); v) yollanma mehnat bo'yicha foydali ish taklif etilgan holatlarda mehnat egasining kasbiy sohasini o'zgartirishni istamasligi (asosiy subyektiv mezonlar); g) hayotning ba'mani ko'rsatkichlari (qo'shimcha sub'yektiv ko'rsatkichlar) kabi omillar qabul qilingan.

Bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlarning ikkilamchi kasbiy mehnat faoliyatiga moslashuvining asosiy jihatlari obyektiv va subyektiv omillarga bog'lab o'rganadigan fan – bu «Mehnat sotsiologiyasi va psixologiyasi» fanidir. Mazkur fanda faoliyatga moslashuvning quyidagi ikkita o'zaro bog'liq asosiy jihatlari farqlanadi.

- kasbga moslashuv;
- ijtimoiy moslashuv.

1) Kasbga moslashuv. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq moslashuvning bunday jihat tadbirkorlardan bajariladigan ishga qo'yiladigan talablarni o'zlashtirishni taqozo qiladi. Bu xil moslashuvda obyektiv va subyektiv omillar mavjud bo'lib, kasbiy moslashuvning obyektiv omillari sifatida tadbirkorlarning ma'lumoti, malakasi va tajribasini sanab o'tish mumkin. Subyektiv omillar qatoriga esa tadbirkorlarning tadbirkorlik faoliyati (kasb)ga bo'lgan munosabati, yangi ish joyidan kutayotgan daromadi va foydasini kiritish mumkin.



O'zgarishlar jarayonida tadbirkorlik faoliyatini tanlagan tadbirkorlarning faoliyatga moslashuvini psixofiziologik jihatiga tadbirkorlik subyektidagi mehnat sharoitining psixofiziologik va tibbiy-gigienik tomonlari kiradi. Moslashuvning ushbu turini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich sifatida tadbirkorning toliqish darajasini olish mumkin. Sinaluvchi o'zining holatini, ish sharoiti va bajarayotgan mehnati og'irligini baholashi ushbu moslashuv turining subyektiv tomonlaridir.

2) Ijtimoiy moslashuv. N.Korneliusning (2005) mulohaza etishicha, ijtimoiy-psixologik moslashuv deganda, tadbirkorlarning mehnat jamoasidagi mavjud munosabat tizimiga moslashishi, jamoaga xos bo'lgan norma va qoidalar hamda unga guruh tomonidan belgilangan rolni va mavqeni qabul qilish jarayoniga aytiladi. Bunday moslashuvning muvaffaqiyatli o'tishi mehnat egasining xarakter xislatlariga, uning muloqotga moyilligiga, hayotiy tajribasi va dunyoqarashining yangi sharoit talablariga mos kelishiga bog'liq. Guruhning ahilligi, uning madaniyat darajasi va asosiysi uning egiluvchanligi bu xildagi moslashuv jarayonining muvaffaqiyatli o'tishi garovidir.

Ijtimoiy-psixologik so'rovnomadagi: «Nega siz ayni vaqtda yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyati bilan shug'ullanishni davom ettirayapsiz?», – degan savolga 57 % respondent o'z javoblarida atrofda qilarga ishning foyda keltirishi va vatan ravnaqini; 30 % komfort shart-sharoitlarni; 36 % mutaxassislikni oshirish yoki kasbiy faoliyatni yangilash imkoniyatini; 50 % sinaluvchilar hukumat tomonidan tadbirkorlarga yaratilgan moddiy manfaatdorlikni; 23 % – mustaqillikka intilish motivi yoki ko'proq o'z vaqtiga ega bo'lish imkoniyatini; 5 % – referent guruh tavsiyasini; 42 % – yaxshi jamoada yoki obro'li tashkilotda ishlash imkoniyati; 11 % – o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ehtiyojini va 5 % – vaziyat taqozosiga ko'ra majbur ekanliklarini sabab qilib ko'rsatgan holda javob berishgan bo'lsa, yana 3 % o'z variantlarini keltirib o'tishgan.

Jadval № 1.

Tadbirkorlar tomonidan ikkilamchi kasbiy faoliyatning tanlanilishi va davom ettirilishiga sabab bo'lgan motivlar reytingi (n=100)

№	Motivlar	XK-SSx/q	Tq
		n=50	n=50
1.	atrofdagilarga ishning foyda keltirishi va vatan ravnaqi	24	33
2.	tadbirkor ayollarga yaratilgan komfort sharoitlar	12	18
3.	mutaxassislikni oshirish yoki kasbiy faoliyatni yangilash imkoniyati	19	17
4.	moddiy manfaatdorlik	16	34
5.	mustaqillikka intilish yoki ko'proq o'z vaqtiga ega bo'lish imkoniyati	4	17
6.	referent guruh tavsiyasiga asosan	3	2
7.	yaxshi jamoada yoki obro'li tashkilotda ishlash imkoniyati	18	24
8.	imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ehtiyoji	3	8
9.	vaziyat taqozosi	1	4
10	yana qanday?	2	1

Adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, faol moslashuvning asosiy mohiyati insonning o'z atrofidagi shart-sharoit, ijtimoiy muhit talablarini qabul qilishi va o'zlashtirishida namoyon bo'ladi. Mazkur ta'rif o'zgaruvchan jamiyat miqyosida tahlil etilganda tadbirkorlarning o'zlari bajarishi lozim bo'lgan faoliyat bilan tanishishi hamda yangi muhit talabiga mos ravishda o'z xulq-atvorlarini o'zgartirib borishini nazarda tutamiz. Tashkilotda xodimlar moslashuvi ishga yangi kelgan yoki o'zgargan mehnat sharoitlariga ko'nikishi lozim bo'lgan mutaxassisga tegishli deb qaraladi.

Ijtimoiy-psixologik so'rovnomadagi «Yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyat (i)ga moslashishigizga to'siq bo'lgan omillar» – degan savolga respondentlarning fikricha, o'zgaruvchan shart-sharoitga moslashishdagi mavjud qiyinchilik quyidagi sabablar orqali izohlanadi (2.2-jadvalga qarang).

2.2-jadval natijalaridan ko'rinadiki, xizmat ko'rsatish va servis sohasida faoliyat yuritayotgan «XK-SSx/q» guruh vakillarining 36 % ining e'tirof etishlaricha, o'zgaruvchan shart-sharoitga moslashishdagi mavjud asosiy qiyinchilik – bu bir mehnat bo'limi yoki guruh ichidagi raqobatning mavjudligidir. Bu javobning tanlanishiga sinaluvchilar faoliyatining guruhiy (masalan, sartaorshxona,



zardo'zlik ustaxonasi, umumiy ovqatlanish obyektlari) munosabatlar doirasida tashkil etilganligi orqali izohlanadi. Psixologik tadqiqotlardan ma'lumki, bir joyda bir jinsli mehnat subyektlarining faoliyat yuritishi o'zaro raqobat muhitini shakllantiradi. Xuddi mana shu holat, fikrimizcha, ikkilamchi kasbiy faoliyat turini tanlagan tadbirkorlarning ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayoni o'tishidagi asosiy qiyinchilikdir.

Jadval № 2.

Tadbirkor ayollarning ikkilamchi kasbiy faoliyatga moslashishidagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar (n=100, foiz hisobida)

№	Motivlar	XK-SSx/q	Tq
		n=50	n=50
1.	moslashuv davrining qisqaligi	19	45
2.	kasbiy faoliyat turiga doir yangi texnologiyalar yoki innovatsiyalarni joriy etilganligi va ularni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar	31	8
3.	ustoz-shogird tizimining shakllanmaganligi	14	7
4.	hatto bir mehnat bo'limi, guruh ichidagi raqobatning mavjudligi	36	40

IPS natijalari tahlilining ko'rsatishicha, yuqoridagidan tashqari qator tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy omillar ham borki, ular yangi mehnat egasi (masalan, ikkilamchi kasbiy faoliyatni tanlagan xotin-qiz)ning ishga moslashuvini qiyinlashtiradi va ular o'z mohiyatiga ko'ra obyektiv omillar toifasiga kiradi. Bular qatoriga «noqulay ish sharoiti», «mehnatning og'irligi», «xodimlar o'rtasida majburiyat va huquqning noaniq taqsimlanganligi», «xodim malakasining kasb talablariga mos kelmasligi», «bajariladigan mehnatni ta'minlovchi resurslar yetishmasligi», «rag'batlantirish va haq to'lash tizimidagi xatolar», «adolat tamoyilining buzilishi» va boshqa sabablar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, ikkilamchi kasbiy faoliyatni tanlanishiga sabab bo'luvchi motivlar va o'zgaruvchan muhitda shaxs moslashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, xususan, inson tabiiy sharoitni o'zgartira olmasa-da, ammo texnikani mukammallashtirish, faoliyatni strategik loyihalashtirish, mehnat jamoasida sog'lom psixologik muhitni shakllantirish orqali noqulay sharoitda ham tadbirkorlarning bozor munosabatlariga ijtimoiy-psixologik moslashuvini faollashtirish mumkin. O'zgaruvchan olamda ikkilamchi kasbiy faoliyat(yangi mehnat)ga bo'lgan faol moslashuv – bu subyektning mehnat jarayonida yangi faoliyat turining o'ziga xos xususiyatlariga moslashishidir. Shulardan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda jamiyatimizda tadbirkorlik faoliyati yanada samaraliroq shakllanishi uchun ularning moslashish darajalarini o'rganish va shular asosida tegishli ko'rsatma va tavsiyalar berish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

Adabiyotlar:

1. Alimov X.M. Milliylik va ijtimoiy ruhiyat. – T.: «O'zbekiston», 1992.
2. Andreyeva I.V. Ekonomicheskaya psixologiya. – SPb.: Piter, 2000.
3. Asomova R.S. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi: Psixol. fan. nom. ... dis. avtoreferati: 19.00.05. – T.: O'zMU, 2002.
4. Axinov G.A., Jilsov Ye.N. Ekonomika obshchestvennogo sektora: Ucheb. posob. – M.: INFRA-M, 2008.
5. Batarshv A.V. Psixodiagnostika v upravlenii: Prakticheskoe rukovodstvo: Ucheb.-praktich. posobie. – M.: Delo, 2005.
6. Bendas T.V. Gendernaya psixologiya: Uchebnoe posobie. – SPb.: Piter, 2016.
7. Kak sbalansirovat rabotu i lichnuyu jizn / Per. s angl. – M.: Alpina Biznes Buks, 2018.
8. Karimova V., Hayitov O., Ochilova G. Iqtisodiy psixologiya va psixologik iqtisod to'g'risida / Iqtisodiyot va ta'lim. – 2017.



Мундарижа * Содержание * Content

3	Малых С. Б., Тихомирова Т. Н.
	<i>Об организации психологического сопровождения общего образования в российской федерации</i>
	<i>On the organization of psychological support for general education in the Russian Federation</i>
8	Мирзаева С. Р.
	Соғлом турмуш тарзи тушунчаси таҳлили
	Healthy lifestyle analysis
12	Сулейманова Н. К.
	<i>Видеоконтентларнинг чет тил ўқитувчисининг педагогик маҳоратини оширишдаги омил сифатидаги хусусиятлари</i>
	<i>Features of video content as a factor in improving the pedagogical skills of a foreign language teacher</i>
15	Тожибоева Х.М.
	<i>Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда уларда “оммавий маданият”га қарши курашчанлик кўникмаларини шакллантириши</i>
	<i>Formation of skills of youth in the struggle against “mass culture” in increasing their social activity</i>
19	Солиев Ф.С., Турдиматов Ж.М.
	<i>Индивиднинг индивидуал-типик онтогенетик характеристикасини ўрганишда инсон тана тузилишининг конституцион жиҳатларини тадқиқ этиши</i>
	<i>Study of the constitutional aspects of the human body in the study of individual-typical ontogenetic characteristics of the individual</i>
23	Усманова М. Н., Останов Ш. Ш.
	<i>Исследование coping-стратегий подростков</i>
	<i>A study of coping strategies for adolescents</i>
29	Isakova M. T., Yuldasheva N.Sh.
	<i>Taqlid bilishning boshlanishi sifatida</i>
	<i>Imitation as the beginning of knowledge</i>
32	Артикова М.Б.
	<i>Хорижий мамлакатларда ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини шакллантиришининг устувор жиҳатлари</i>
	<i>Priorities in Building Entrepreneurial Skills in Students in Foreign Countries</i>
37	Mirzajonova E.T.
	<i>Tayanch-harakat tizimida nuqsoni (serebral falajligi) bo'lgan bolalarning tafakkur va idrok jarayonlarining rivojlanish muammolari</i>
	<i>Problems of development of cognitive and cognitive processes in children with musculoskeletal system</i>



	defects (cerebral palsy)
41	Қаюмов И.Ф.
	<i>Кичик ёшдаги ўқувчиларда мусиқий қобилиятларни ривожлантиришнинг психологик имкониятлари</i>
	<i>Psychological possibilities of developing musical skills in younger students</i>
46	Инагамова Л.У.
	<i>Бошқарув фаолиятида кейс-стади методидан фойдаланишнинг хориж тажрибаси (россия мисолида)</i>
	<i>Foreign experience of using case study method in management (Russian example)</i>
54	Раҳмонова З.Н.
	<i>Хориж психологиясида "эмоционал интеллект" тушунчасининг шаклланиши</i>
	<i>Formation of the concept of "emotional intelligence" in foreign psychology</i>
58	Абдурсулов Р.А., Бахромов О.Б.
	<i>Ёш спортчиларнинг спорт машғулотларига бўлган қизиқишлари ва мотивлари</i>
	<i>Interests and motivations of young athletes in sports</i>
62	Мухамеджанова С. Д.
	<i>Талабаларда коммуникатив маданиятни ривожлантиришнинг психологик омиллари</i>
	<i>Psychological factors of development of communicative culture in students</i>
67	Назаров А.М., Рустамов Ш.Ш.
	<i>Анализ психологических данных с помощью программы spss</i>
	<i>Analysis of psychological data using spss</i>
73	Каримов Б.Ш.
	<i>Оилада меҳр туйғусини шакллантиришнинг ижтимоий – психологик механизмлари</i>
	<i>Socio-psychological mechanisms of forming feelings in the family</i>
81	Содиқова Г.О.
	<i>Ўсмирлик даврида мустақил қарор қабул қилишнинг психологик ўрганилганлик ҳолати</i>
	<i>The state of psychological learning of independent decision-making in adolescence</i>
84	Узоқов А.М.
	<i>Олий таълим муассасалари талабаларининг ватанпарварлик даражасини баҳолаш модели</i>
	<i>Model of Patriotic Assessment of Higher Education Students</i>



89	Баширов Б. А.
	<i>Касб танлашнинг психологик омиллари</i>
	<i>Psychological factors of career choice</i>
94	Каримов Б.Х.
	<i>Инсон онг муаммосининг фалсафий ва психологик жиҳатлари</i>
	<i>Philosophical and psychological aspects of the problem of human consciousness</i>
101	Qodirov M.S.
	<i>Davlat bojxona xizmati xodimlari faoliyatida profayling metodining qo'llanilishi</i>
	<i>Application of profiling method in activity of the State Customs Service</i>
106	Ибрагимов М.Б.
	<i>Некоторые аспекты проблем подготовки высококвалифицированных футболисток в бухарской области</i>
	<i>Some aspects of the problems of training highly qualified football players in the Bukhara region</i>
109	Олимов Л.Я., Махмудова З.М.
	<i>Психодиагностикани компьютерлаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари</i>
	<i>Features of computerization of psychodiagnostics</i>
116	Нуралиева Д.М.
	<i>Бола шахсини шаклланишида оилавий муносабатларининг аҳамияти</i>
	<i>The importance of family relationships in the formation of a child's personality</i>
121	Жўраева С.Н., Авлаев О.У.
	<i>Бахтни белгилашда адаптация даражасининг нисбийлиги</i>
	<i>Relativeness of adaptation to happiness</i>
126	Эрназарова Р.Ю.
	<i>Ўқувчиларда юридик тушунчалар шаклланишида асаб тизимининг ўзига хос аҳамияти</i>
	<i>The role of the nervous system in the formation of legal concepts in students</i>



131	Абдиназарова Н.Э.
	<i>Ўқувчиларида ҳуқуқий билимларни шакллантириши психологик тадқиқот муаммоси сифатида</i>
	<i>Formation of legal knowledge in students as a problem of psychological research</i>
135	Ахмедова З.
	<i>Ҳомиладорлик даврида аёллардаги эмоционал ҳолатлар психодиагностикаси ва психокоррекцияси</i>
	<i>Psychodiagnostics and psychocorrection of emotional states in women during pregnancy</i>
139	Бахронова К.Ё.
	<i>Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда хулқ-атвор бузилишлари намён этилишининг ижтимоий психологик хусусиятлари</i>
	<i>Socio-psychological characteristics of behavioral disorders in preschoolers</i>
145	Холматова З. А.
	<i>Интерактивные методы в системе преподавания гуманитарных дисциплин в техническом вузе</i>
	<i>Interactive methods in the system of teaching humanities at a technical university</i>
149	Satvaldiev A. A.
	<i>Tadbirkorlik psixologiyasi shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari</i>
	<i>Socio-psychological features of the formation of entrepreneurial psychology</i>
153	Sirojiddinova F. X.
	<i>O'quvchilarni mehnat faoliyati motivatsiyalarini diagnostika qilish</i>
	<i>Diagnostics of student motivation</i>
158	Давронов Н.И.
	<i>Миллий қадриятлар ёрдамида бошлангич синф ўқувчиларда жисмоний сифатларни тарбиялашнинг психологик омиллари</i>
	<i>Psychological factors of physical education in elementary school students using national values</i>
162	Жўраев Б.
	<i>Ёшларда ҳуқуқий муносабат шаклланишининг психологик омиллари</i>
	<i>Psychological factors of formation of legal relations in youth</i>
165	Ҳакимова М.Х.



	<i>Мактабгача ва бошлангич таълимда математик тасавурларни шакллантиришида мустақил ижодий тафаккурни ривожлантиришининг психологик имкониятлари</i>
	<i>Psychological possibilities to develop independent creative thinking in the formation of mathematical concepts in preschool and primary education</i>
172	Равшанов Л.У.
	<i>Ҳарбий хизматчи имижининг психологик жиҳатлари қуролли кучлар имижининг шаклланишидаги туган ўрни</i>
	<i>The psychological aspects of the serviceman's image in the role of the armed forces</i>
178	Юсунова Ш.Б.
	<i>Техник тафаккур психологик муаммо сифатида</i>
	<i>Technical thinking as a psychological problem</i>
182	Ganjiev F. F., Qosimova S.B.
	<i>Мактабгача таълим муассасаси тарбиячиларида касбий компетентлик шаклланишининг назарий-амалий асослари</i>
	<i>Theoretical-practical bases of professional competence formation in preschool teachers</i>
185	Жумаев С.С.
	<i>Взаимосвязь музыкальных предпочтений и психологических особенностей слушателей музыки</i>
	<i>The relationship of musical preferences and psychological characteristics of music listeners</i>
191	Санаева С.Б.
	<i>Мактабгача таълим муассасаси тарбиячиларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришининг психологик жиҳатлари</i>
	<i>Psychological aspects of development of professional competence of preschool teachers</i>
195	Нарзикулова Ф.Б.
	<i>Профессионально - педагогическая направленность, как условие становления профессионального имиджа педагога</i>
	<i>Professionally - pedagogical orientation, as a condition for the formation of a professional image of a teacher</i>
199	Ядгарова Г.Т.
	<i>Профессиональная ориентация на педагогические профессии как фактор повышения их престижа и осознанного выбора учащимися общеобразовательных школ</i>



	Professional orientation to pedagogical professions as a factor in increasing their prestige and informed choice by students of secondary schools
202	Эшбеков Т.У.
	<i>Олий таълим тараққиётида жамоатчилик билан алоқалар (pr)нинг ўрни</i>
	<i>The role of public relations (pr) in the development of higher education</i>
208	Munirov N.A.
	<i>Turon kurashchilarini musobaqa oldi psixologik tayyorlashning samaradorligi</i>
	<i>Effectiveness of pre-tournament psychological training of Turan wrestlers</i>
213	Исломов Э. Юсупович, Акрамова Г.М.
	<i>Ўзбек миллий курашининг ўқувчишахси сифатларини шаклланишига психологик таъсириларини ўрганиш</i>
	<i>Study of the psychological effects of the Uzbek national wrestling on the formation of the student's personality</i>
217	Курбонова Г. Н.
	<i>Тиббий педагогика таълим йўналиши талабалари касбий тафаккурини ривожлантиришининг педагогик-психологик хусусиятлари</i>
	<i>Pedagogical and psychological features of the development of professional thinking of students in the field of medical pedagogy</i>
222	Жуманиязова И.
	<i>Инсульт касалигига чалинган беморларга психологик ёрдам беришда арт-терапия усули</i>
	<i>Art-therapy method of psychological support to stroke patients</i>
ИЛМИЙ МУШОҶАДА	
227	Рўзиев У. М.
	<i>Ҳиссий зўриқишлар, миядан кетмайдиган фикрлар ёки обсессия</i>
ОАК ХАБАРЛАРИ (ҚУТЛОВ)	
<i>Абдурасулов Рустам Абдураимович</i>	